

ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI TALQINIGA DOIR

Sohiba Yangiboyeva¹

talaba

Mohira Sadullayeva²

Ilmiy rahbar:

¹⁻²(Qoraqalpoq davlat universiteti)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337394>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida o'zbek ayollari obraziga xos jihatlat tahlilga tortiladi. "Ayol", "Yozsiz yil", "Yolg'izlik qurboni" hikoyalaridagi Nazokat, Buvgul xola, Tamara kabi turfa xil obrazlar karakterini yaratish orqali ijodkor mahorati xususida tahlillar asosidategishli xulosalarga chiqarilgan.

Kalit so'zlar: obraz, karakter, nasr, talqin, tahlil, so'z, badiiyat, realizm, ruhiyat, mahorat, ijodkor mahorati.

Abstract: In this article, the characteristic aspect of the image of Uzbek women is analyzed based on the stories of Zulfiya Kuroloy, a bright representative of modern Uzbek literature. By creating the characters of various characters such as Nazokat, Aunt Buvgul, and Tamara in the stories "Ayol", "Yozsiz Yil", "Victim of Loneliness", appropriate conclusions were drawn based on the analysis of the artist's skills.

Key words: image, character, prose, interpretation, analysis, word, artistry, realism, spirit, skill, creative skill.

Аннотация: В данной статье анализируется характерный аспект образа узбекской женщины на примере рассказов Зульфии Куролбой, яркой представительницы современной узбекской литературы. Создавая образы различных персонажей, таких как Назокат, тетя Бувгуль, Тамара в рассказах «Айол», «Йоззиз Йыл», «Жертва одиночества», на основе анализа мастерства художника были сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: образ, персонаж, проза, интерпретация, анализ, слово, художественность, реализм, дух, мастерство, творческое мастерство.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar kabi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham sezilarli darajada tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu, ayniqsa, nasrda yaqqol namoyon bo'ldi. Shakl va mazmunning o'ziga xosligi, ijodkor uslubining yangicha talqini paydo bo'ldiki, bunda, abatta, jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analarning ham ta'siri bor. Nasrga xos bunday yangilanishlarning aksariyati tezkor va ixcham hikoya janrida o'z aksini topdi. Aslida, nasrning qaysi janri bo'lmasin, undagi asosiy obraz - inson obrazidir.

“Adabiy asar chinakam asar namunasi bo’lishi uchun, realizmga mansub bo’ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo’ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir uning markazida inson turmog’i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin”[1:245]. Shu bois ham, zamonaviy adabiyotda insonni har tomonlama o’rganish va kashf etish doimiy dolzarbligini yo’qotmaydi. Adabiyot faqat uslubiy, shakliy va talqinlarni emas, balki, badiiy asarlarda yaratilayotgan qahramon obrazlarining xilma-xilligi bilan ham boy va go’zaldir. Hayot uchun kurashuvchan, ezgulikka intiladigan, sabr-qanoat va aql-idrokka ega obrazlarni tasvirlash badiiy adabiyotning tarbiyaviy-estetik vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda, ana shunday turfa xil obrazlarni yaratib, adabiyot maydonida o’z o’rniga ega ayol yozuvchilardan biri Zulfiya Qurolboy qizidir. U yaratgan hikoyalarda asosan, ayol obrazi alohida o’ringa ega. Jumladan, muallif qalamiga mansub “Ayol”, “Yozsiz yil”, “Yolg’izlik qurboni” hikoyalaridagi Nazokat, Buvgul xola, Tamara kabi turfa xil obrazlarni mahorat bilan yaratganki, bu orqali kitobxon yozuvchining yuksak did va iste’dod sohibasi ekanligiga yana bir bor iqror bo’ladi. Bu obrazlari orqali ularning ruhiy kechinmalari, turli taqdir egalarining iztiroblarini, o’y-xayollarini jozibali hamda reallik bilan badiiy talqin qilishi alohida ahamiyatga molik. Uning hikoyalaridagi ayollarning har birida o’ziga xoslik, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat tuyg’ulari bilan bir qatorda, qat’iyat, iroda kabi xususiyatlar ham omuxtalashib ketadi. Bunga “Ayol” hikoyasidagi Nazokat obrazi yaqqol misoldir. Uning o’zbek ayollariga xos sabr-toqat, muhabbat tuyg’ulari bilan bir qatorda sharqona nazokat va metin iroda obraz xarakterini belgilashda yanada aniqroq ifoda qiladi. Nazokat og’ir dard bilan kurashar ekan, sira ham ayollik nazokatidan vos kechmaydi. Latofat va go’zalligini tark etmaydi, shu ko’rk bilan jon taslim qilishini va qanchalik dard ustun kelmasin, unga o’z hukmini o’tkazishga urinmasin, bu qiyinchiliklarga yengilmasligini, mardonavar kurashishni afzal biladi, bir lahza ham umidsizlikka tushmaydi. Ayol o’z o’limidan keyin oilasining, farzandlari va turmush o’rtog’i xotirasida mehribon ona, go’zal rafiqqa tarzida qolishni xayol qiladi. Ismi jismiga monand yashashga intiladigan, buning uchun hamma narsaga tayyor turgan matonatli ayol. U umrining sanoqli kunlari qolganini sezadi, sanoqli damlarini ayollik nazokatini saqlagan holda o’lim topish uchun sarflaydi. Eri va bolalarining xotirasiga yuzlari so’lg’in, ko’zlari unidsiz va nursiz, tanasida shish va dardga yengilgan ayol sifatida muhrlanishni aslo istamaydi. Buni quyidagi parchada kuzatish mumkin: “Palataga hamshira kirdi. Erim kelsa ichkariga

kiritmang,iltimos, - dedi Nazokat unga. Nega? Do'xtir kechasi yoningizda odam bo'lishini tayinlagan, - dedi hamshira. Vaqtincha kiritmay turing, iltimos. Lekin u havotirlanadi... Biror bahona o'ylab toparsiz! - dedi Nazokat va hamshiraning cho'ntagiga pul soldi. Hamshira ikkilanganicha chiqib ketdi. Nazokat derazaga tikildi. Uning ko'z oldida o'g'illari paydo bo'ldi. Ayol o'kirib yubormaslik uchun labini qattiq tishladi". Bu dialog orqali yozuvchi ayolning ichida tug'yon urayotgan dard va alamni ishonarli tarzda qalamga olganki, asarning jonliligi, estetik ta'sirini ta'minlagan. Ayolning butun tanasini shishlar egallab olganidan keyingi ahvolini xunuk va so'lg'in ruhiyatini eriga aslo ko'rsatishni xohlamaydi. Hamshiraga pul evaziga erini kiritmaslikka ko'ndiradi. U ikki tomonlama kurash ichida tasvirlanadi: tanasini egallayotgan dard va go'zalligini va ayollik nazokatini saqlash uchun qilinayotgan harakatlar. Nazokat go'zal o'lim topish va abadiy nazokatini saqlash uchun butun dunyo og'riqlariga chidashga tayyor. Shifokorlardan ham faqat bir narsa: xunuk holda o'lim topmasligi, qancha og'riq bo'lsa ba'riga chidashini aytib, ulardan najot kutadi. Hatto bu yo'lda bor-budini, tilla uzugigacha tikadi: "Nazokat tilla uzugini vrachning cho'ntagiga soldi. Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha! Vrach yana javob bermadi. Hatto qarab ham qo'ymadi. Ayolning qo'li cho'ntagiga kirib chiqqanidan keyin ham yuziga qaramadi. Biroq: Hamshira!-deya chaqirdi yo'lakka qarab. Nazokat jilmaydi. Keyin yostig'i ostidan upa-elikni oldi...". Hikoyaning eng ta'sirli, kitobxonni junbushga keltiradigan, bevosita yig'latadigan qismi, dard va og'riqning eng yuqori nuqtasi, o'lim sharpasi yonginasida izg'ib yurishiga qaramay, upa-elik yostig'i yonida va uni olishi. U metindek irodasini namoyon qiladi. Voqelikning yuksak va jonli tasviri yozuvchining chin ma'nodagi iste'dod egasi ekanligi, qalamining o'tkirligi-yu, yuksak did va saviya sohibaligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Zulfiya Qurolboy qizining ana shunday hikoyalaridan yana biri "Yozsiz yil"dir. Hikoyadagi Buvgul xola obrazi Nazokatdan keskin farq qilsa ham, ularning o'xshash taraflari ham yo'q emas. Buvgul xola avtohalokat sababli sog'ligi va erkakligidan ayrilgan o'g'lining so'ngsiz iztiroblari va alamlarini ko'rib ado bo'layotgan, g'amga tamomila botgan bo'lishiga qaramay o'g'lining birgina tabassumi sabab barchasini unutish darajasida sabr-bardoshli, hattoki, o'zini unutib, borlig'ini farzandi baxti uchun baxsh etgan haqiqiy o'zbek ayoli obrazini ko'rishimiz mumkin. Muallif hikoyada tasvir chiziqlarni kitobxon barcha iker-chikirlarigacha yetkazib berishga uringan va buning uddasidan chiqqan ham. Ayolning kayfiyati, ichki azobi, ko'ngilni larzaga soladigan darajada badiiy bo'yoqlarda ideallashtirilgan. Uning o'y-xayollar girdobi tasvirini yozuvchi

shunday ifodalagan: “Bu hol yana qancha davom etarkin-degan savoldan etlari junjikib ketardi. Ammo o’g’lining baxtiyor chehrasiga ko’zi tushgan lahzadan boshlab hammasini butgul unutar, ertaga nima bo’lsa bo’lar, mana hozir bolamdan baxtli odam yo’q, menga bundan ortiq nima kerak deb o’ziga taskin berardi”. Ha, u farzandining dardini olish uchun hammasiga tayyor va ayni damda chorasiz qolgan mushfiq va munis onadir. U farzandiga yomon ko’z bilan qaragan hammadan nafratlanadi. Hatto bolasini sog’ligini yomonlashishiga sabab bo’ladigan qishni yomon ko’radi. Butun borlig’i, yashashi uchun birgina sababi shu bolasi uchun yonib-kuyadigan haqiqiy o’zbek onasi timsoli. Uning obrazi badiiy tasvir vositalari bilan boyitilib, go’zal bir manzara holiga keltirilgan. Har bir xatti-harakati va nutqidan anglashiladiki, yozuvchi chin ma’noda o’ziga yuklatilgan vazifani a’lo darajada uddalagan. U haqiqiy fidoiy ona obrazini yaratgan.

Adibaning “Yolg’izlik qurboni” hikoyasida esa tamomila boshqa olam, boshqa hayot qalamga olingan. Undagi bosh qahramon umuman o’zga dunyo vakilidir. Hikoyada yolg’izlikdagi ayol obraziga murojaat qilingan. Hikoya sarlavhasidan ayonki, yolg’izlik o’z domiga olgan ayolning sassiz-sadosiz, hech bir nishonsiz dunyodan o’tishi fojeali tasvirlangan. Ayolning yoshi ancha katta bo’lsada farzandsizligi, farzand saqlab olishga layoqatsizligi, unga farzand tarbiyasi eplab bo’lmas ishday tuyulishi ochiq-oydin yoritib berilgan. Unda mas’uliyatdan qochgan, faqat o’zini deb yashagan, yoshlik, navqironligida qarilik va yolg’izlikning naqadar qo’rqinchli va ayanchli yakun ekanligini anglamasdan yashab o’tgan ayol chizgilari gavgdalanadi. Eridan ayrilganidan keyin yolg’iz o’zi qoladi. Uni yeb qo’ygudek yolg’izlik va kimsasizlikdan qutulish uchun yaqinlaridan ilinj istab mehmonga borishi, hech bir joydan o’ziga qo’nim topmasligi, ko’ngli to’lmasligi va yana o’sha hech bir ishga yaramaydigan buyumlar orasiga qaytishidagi ayanchli holat realni tasvirlangan. Yolg’izlik uning shu darajada sillasini quritadiki, hattoki kalamushlar uni yo’qlab kelganiga o’zini ishontiradi, sevinadi, bu holat bir o’ylashda juda g’ayrioddiy tuyuladi. Befoyda va mazmunsiz bu hayotdan yolg’izlikda o’lim topadi. U butun umri davomida aziz deb bilgan, farzanddan ham qadrli deb o’ylovchi buyumlardan ham o’sha kecha uyiga o’g’ri tushib ayriladi. Asar yakunida ayol yolg’izlikning qurboniga aylanadi.

Umuman aytganda, Zulfiya Qurolboy qizining yuqoridagi tahlilga tortilgan hikoyalarida uch xil ayol obrazi tasvirlangan. Yozuvchi inson ruhiyati, uning taqdiridagi tub burilishlarni, ruhiy iztiroblarni juda aniq va ishonarli tarzda ifodalagan. Undagi o’tkir til va badiiylik uyg’unlashib go’zal san’at asarlarini

yuzaga keltirgan. Hozirgi adabiyotda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Aytish kerakki, yozuvchining asarlarida ijtimoiy masalalar emas, alohida inson obrazi, ayniqsa, ayol obrazi tasviri, kechinma-yu sezimlarini tasvirlash yetakchilik qiladi. Adib asarlarida o'zi yaratgan badiiy voqelikni o'quvchiga to'ydirishga, uni tushunarli qilishga urinadi. Bugungi adiblar uchun hayotiy realistik birinchi ahamiyat kasb etmaydi. Bunga badiiy reallikni ta'minlash vositasi deb qaraladi. Badiiy asarlar qiziqarli voqealar tafsiloti tasviridan emas, balki inson ko'ngli kechinmalaridan so'zlayapti. Bu borada, ayol obrazi, ayol xarakteri doimo o'rganilishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. Шарқ, 2004. Б. 245.
2. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" hikoyasi. Ziyoz.uz. 2013.
3. Zulfiya Qurolboy qizi "Yozsiz yil" hikoyasi. "Yoshlik" jurnali. 2017.
4. Zulfiya Qurolboy qizi "Yolg'izlik qurboni" hikoyasi. Ziyoz.uz. 2013.